



PUBLITSISTIK MAHORAT OMILLARI

Nilufar NAMAZOVA,

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy
Kommunikatsiyalar universiteti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya. Maqolada jadid publitsisti Hoji Muin publitsistikasining ayrim jihatlari mahorat nuqtayi nazaridan tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: jadid, publitsist, xabar, mahorat, sarlavha.

Аннотация. В статье анализируются с точки зрения мастерства некоторые аспекты публицистики Хаджи Муина.

Ключевые слова: новость, публицист, сообщение, мастерство, звание.

Publitsist mahorati uning davr bilan hamnafas faoliyatida namoyon bo'ladı. Jurnalistik ijodning har bir janrida publitsistdan mana shu hozirjavoblik talab qilinadi. Zero, «Publitsistika zamona tarixidir» [1] degan ibora bejiz aytilmagan.

Jadid publitsisti Hoji Muin xoh xabar yozadimi, xoh maqola yoki publitsistikaning boshqa janrlarida qalam tebratadimi, unda o'z davrining yorqin tasviri va muallifning yoniq qalbi ko'rinish turadi. Ularni bugungi kun nuqtani nazaridan baholaydigan bo'lsak, ahamiyati, dolzarbliги hozirda ham yo'qolmaganligini kuzatish mumkin. Bu esa Hoji Muinning qalami o'tkir publitsist ekanligidan dalolat beradi.

Matbuotga ma'rifiy mavzudagi xabar va maqlalari bilan kirib kelgan Hoji Muin asta-sekin jurnalistik mahorat sirlarini egallab bordi. Bu jarayon uning turli davrlarda yozilgan xabarlari, taqrizlari, maqlalarida yaqqol ko'rindi. Hoji Muinning dastlabki xabarlari kitoblar haqida bo'lib, «Turkiston viloyatining gazeti»da chop etilib turgan. Ularda yosh publitsistning yaxshi yozishga bo'lgan intilishi, harakatini ilg'ash mumkin. Bu xabarlar ancha murakkab tilda yozilgan bo'lib, jumlalarda arab-forscha so'zlar bilan birga turk-tatarcha so'zlar ham ko'p qo'llanilgan. Dastlab yangi chop etilgan kitoblar haqida xabar bergan yosh publitsist asta-sekin yangi asarlarga taqrizlar yoza boshladi, ya'ni axborot berishdan tahlil qilishga o'tdi, shu bilan birga, yozganlarining tili ham soddalashib bordi. Hoji Muinning 1914-yili «Turkiston viloyatining gazeti»da chop etilgan "Yangi asar" [2] kichik taqrizi haqida B.Nazarov, R.Tojiboyev, N.Avazovlar fikr bildirganlar. B. Nazarov uni "janr jihatdan taqrizga yaqin" desa, R.Tojiboyev bu fikrga e'tiroz





bildirib: "...mazkur ixcham taqriz tanqidchiligidizda bu janrning ilk namunalaridan edi, deb yozadi.

Jurnalistning mahorati axboriy janrlarni yozishda yaqqol ko'rindi. «Gazetaning noni», «Gazeta ko'zgusi» deya e'tirof etiladigan axborotni xalqqa yetkazishda har qanday davrda ham jurnalist oldiga tezkorlik, xolislik va haqqoniylilik kabi vazifalar yuklanadi. Bular jurnalistikaning asosiy belgilari hisoblanadi. Biroq o'tgan asrning boshlarida o'zbek milliy jurnalistikasining tamal toshini qo'ygan jadid publitsistlari, jumladan, Hoji Muinning publitsistik faoliyatini tahlil qilganda o'sha davr talablari va darajasini ham e'tibordan soqit qilmasligimiz kerak. Bugungi kunda axboriy janrlar xronika(kichik xabar), xabar, yangilik, suhbat, hisobot, korrespondensiya, reportaj kabi turlarga bo'lib tahlil qilinadi. Biroq o'tgan asrning 20-yillarida yaratilgan jurnalistikaga oid ilk nazariy qo'llanmalarda mazkur janrning «xabar», «Yoyiq xabar» kabi turlari ko'rsatilgan xolos. Masalan, 1923-yilda yaratilgan «Xabar, maqola, she'r va hikoya yozish» nomli qo'llanmada quyidagi fikrlar bitilgan; «Har bir xabarchi qandayg'ina bir voqeani yozishni istamasin, matbuot qoidasig'a rioya qilib, mutlaqo uch narsani esdan chiqarmasin. Biri – nima, ikkinchisi – qanday, uchinchisi – qay yerda» [3]. Bugungi adabiyotlarda esa «Jahon ommaviy vositalari yangiliklari qabul qilgan olti savol - «kim», «nima», «qaerda», «qachon», «nega» va «qanday qilib» axborotning asosiy unsurlari ekanligi» ta'kidlanadi. Ko'rindaniki, xabar-yangilik bugungi kunda qo'shimcha yana uchta savolga javob bersagina yaxshi yozilgan hisoblanadi. Bu ikki qiyos axborot janrlaridagi rivojlanishni ko'rsatadi.

Bugungi kunda axborot uzatishda jurnalistdan xolislik talab qilinadi, ya'ni xabarda jurnalist «men»i ko'rindanmaydi. Hoji Muin yozgan deyarli har bir xabarda, umuman, jadid matbuotida chop etilgan xabarlar so'ngida, albatta, o'git tarzidami, luqma yoki afsus-achinish tarzidami, jurnalist fikri namoyon bo'ladi. Masalan, «Samarqand xabarlari» rukni bilan berilgan xabarlardan keltiramiz:

«Xalq qirilmoqdadir

Bultur dekabr oyindan beri kerak shahar, kerak qishloqlarda 2-3 kungina xastalanib, xalqimiz qirilmoqdadir. O'lum shul qadar dahshatlidirki, hatto 6-7 nafardan iborat bir oiladan ba'zi joylarda yolg'uz 1-2 gina kishi salomat qolq'on. Bu to'g'rida shaharning hifzul-sihhat komissari biror turlik tadbir etmasmi, xalqqa tibbiy yordam berilmasmi ekan?»[4]





Yoki «Non

Bir necha kundan beri shahrimizning rus va musulmon qit'asindagi jamoat do'konlarindagi xalqg'a jo'veridan pishurilg'on past nonlar berilmakda va ham qadog'ig'a 24 tiyin ortiq (76 tiyin) olinmoqdadir. Muning uchun rus va musulmonlar orasinda noroziliq so'zлari paydo bo'lub turibdir. Darvoqe, bechora ishchi va zahmatkashlarimizning bir dilxushliqlari bo'lsa, ul ham to'yolmasliq bir holda arzon non olib yemaklari edikim, bundan ham baxtsizliklarindan mahrum bo'ldilar. Bu to'g'rida qorni to'qlarimiz biror turlik tadbir etmaylarmi, ajabo!» [5]

Ko'rinaridiki, bu xabarlarda jurnalistning achinishi, tanqidi va murojaati aks etgan. Bunday yozish usuli o'sha davr jurnalistikasiga xos hodisa edi.

Jadid matbuotida ibratli xabarlarni ko'plab uchratish mumkin. Hoji Muin ham bunga alohida e'tibor bilan qaragan. Chunki kichik bir xabar katta maqoladan ham ko'proq ta'sirli bo'lishi mumkinligini u yaxshi bilardi. Masalan, u «Hayratlik to'y» xabarida shunday yozadi: «22 noyabr kuni shahar dumasining a'zosi Mulla Rahimjon Shokirjon o'g'li o'z nabiralarining xatnasi uchun to'y berib, to'y kunlarida ba'zi mustahiq o'runlarg'a xayr-ehsonlar qilg'on. Chunonchi, musulmoniy sho'rosining noibi Akobir afandi borganda, unga musulmon qabristonlarining foydasig'a 200 so'm bergen. Musulmon yetimxonasi nafig'a 200 so'm hadya bergen. Musulmon jamiyatni xayriyasindagi muhtojlarga bir qozon osh berib, yana ularning foydasig'a 200 so'm ehson etgan. O'z nabiralar o'quyturg'on maktabdagi talabalarg'a daftar va qalam olib bermak uchun 100 so'm hadya etgan» [6].

Hoji Muin o'z kundaligida 400 ga yaqin xabarlari matbuotda chop etilganligini yozadi. Bu esa uning xalq bilan birga ekanligidan, xolis va tezkor faoliyat yuritganligidan dalolat beradi.

Materialga sarlavha tanlay bilish ham muayyan ma'noda publitsistdan mahorat talab qiladi. «Sarlavha – bu muallifning o'quvchi bilan muloqotidagi birinchi so'zi. Uning yuki salmoqlidir», deb yozadi rus jurnalisti Z.D.Borskivskiy. O'zbek jurnalistikasida esa «Sarlavha – yarim maqola» degan ibora ko'p ishlatiladi. Hoji Muinning aksariyat xabar va maqolalariga sodda va ixcham sarlavha qo'yilgan. Ular asosan, so'z va so'z birikmalaridan iborat. Masalan, «Yangi asar», «Teatrning ahamiyati», «Oila tarbiyasi», «Tazminot», «Askarlik to'g'risida», «Xalq dorilfununi», «Til masalasi», «Bolalar bog'chasi» kabi sarlavhalar fikrimizning dalilidir.





Publitsistning «Bolsheviklar va biz» sarlavhali maqolasi mahorat bilan yozilgan maqlolaridan biridir. Bu mahorat maqolaning sarlavhasida ham ko'rindi. Sarlavhaning o'zidayoq publitsistning bolsheviklarga bo'lgan munosabati o'ziga xos ifodalangan. Negaki, muxtoriyat orzusida bo'lgan jadid ziylilari bilan Turkiston muxtoriyatini qonga botirgan bolsheviklar o'rtasida katta farq, ixtilof bor. Publitsist esa ana shu mazmunni qisqa jumlalarda ifodalay olgan. Yoki bo'lmasa, uning «Qadrnoshunoslik» [7] fiqrasi ustida to'xtalsak, sarlavhaning mahorat bilan qo'yilganligiga guvoh bo'lamiz. Axborot janrida yozilgan ushbu material sarlavhasiga Behbudiy nomining qo'shilishi uni o'qishliligini oshirgan bo'lardi. Biroq publitsist unga sarlavha tariqasida yangi so'z kashf etadi. Uning Samarqand yoshlarini «qadrnoshunos» deya atashidan asosiy maqsadi Mahmudxo'ja Behbudiyning yo'qolganligini bildirish, yurt manfaati yo'lida jonini fido qilgan insonni qidirib topishga bosh qo'shmayotgan ziylilarni Behbudiy taqdiri haqida qayg'urishga chaqirishdir.

Xulosa qilib aytganda, o'ta zahmatkash inson bo'lgan Hoji Muin o'z qobiliyatini turli sohalarda, jumladan, matbuotda ham yorqin ko'rsata oldi. O'z ijodiy faoliyatini «Nahif» (nimjon-N.N.) taxallusi bilan boshlagan ijodkor keyinchalik «Boturbek» taxallusi bilan jamiyatdagi illatlarni fosh qildi. Uning matbuotda chop etilgan yuzlab maqlolari, xabar, korrespondensiya va taqrizlari xolis va haqqoniyligi, tahlilga boyligi, tilining soddaligi, eng muhimi, yurt va millat manfaatidan kelib chiqib yozilganligi uchun ham o'z davrida o'qildi, aks-sado berdi. Publitsist tabiatidagi jasorat va fidoyilik ham uning mahorat bilan qalam tebratishida asosiy omil bo'ldi. Bir so'z bilan aytganda, Hoji Muin o'z davrining yorqin tarixini yurak qoni bilan yozib qoldirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tog'ayev O. O'zbek badiiy publitsistikasi asoslari. – T.: Fan, 1973. B. 27.
2. Hoji Muin. Yangi asar // Turkiston viloyatining gazeti. 1914. 2 yanv.
3. Anqaboy. Xabar, maiola, she'r, hikoya yozish yo'llari. – S.-T.; O'zbekiston Davlat nashriyoti. 1927. B. 23-24.
4. Haqqoniy. Samarqand xabarları // Mehnatkashlar tovushi. 1919. 11 fevr.
5. Haqqoniy. Non // Mehnatkashlar tovushi. 1918. 3 dek.
6. Mehnatkashlar tovushi. 1918. 29 noyab.
7. Hoji Muin. Qadrnoshunoslik // Mehnatkashlar tovushi. 1919. 23 apr.

